

AJDODLARIMIZDAN MEROS BO‘LIB KELAYOTGAN MILLIY AN‘ANA VA QADRYATLARIMIZ ASRAB-AVAYLASH HAR BIR O‘ZBEK FARZANDINING BURCHIDIR.

Abdullayeva Risolat Eshonqul qizi

Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti


Amaliy psixologiya yo‘nalishi III-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv davrining ijobiy va salbiy tomonlari, o‘zbek milliy qadryatlari, o‘zbekona urf-odatlar, yosh avlod qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish, ajdodlardan o‘tib kelayotgan dunyoqarashni shakllantirish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, milliy qadriyatlar, o‘zbekona urf-odatlar, yoshlar tarbiyasi.

XXI asrning mohiyati va qiyofasi inson ongida turlicha gavdalandi. Yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, axborotlashuv davri va boshqa tushunchalar bilan ta’riflanmoqda. Globallashuv-har doim inson ongiga ta’sir qilgan eng faol jarayonlardan biridir. Bu inson faoliyatining barcha sohalariga ta’sir qiladi. Globallashuv jarayoni XIX asrning 30-yillarida mamlakatlar iqtisodiyoti bitta global bozorga birlashayotgan paytda boshlangan. Globallashuvning noyob ijobiy tomoni shundaki, u inson hayotining madaniy tomonlari bilan bog‘liq. Madaniy globallashuv – bu milliy va diniy chegaralarni yo‘q qilishga intiladigan jarayon bo‘lib, butun insoniyatni yagona global sivilizatsiya ichiga birlashtirishni maqsad qiladi. Xalqlarning madaniyat va iqtisodiyotlarining yaqinlashuvini tezlashtirib, yangi imkoniyatlar yaratadi. Tanganing ikki tarafi bo‘lganidek, globallashuvning salbiy tomoni shundaki, ko‘p ming-minglab mayda qoloq millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlari globallashuv jarayonida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmay, o‘z-o‘zidan hayotda chetga chiqib bormoqda.


Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir ongli inson oldida turgan vazifasi- o‘z millatining jahon miqyosida raqobatbardoshligini ko‘tarish, o‘z milliy urf-odatlarini, onatini, madaniyatini butunligicha saqlagan holda yosh avlodga yetkazishdir. Bugungi kunda turli yot g‘oyalardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo‘lgan milliylik, betakror fazilat egasi bo‘lib qolishimiz uchun qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi har bir millat o‘zining an‘ana va urf-odatlari bilan alohida o‘ziga xoslikni namoyon qiladi. Vaholangki millatga xos bo‘lgan an‘analar o‘z-o‘zidan, 1-2 yil ichida paydo bo‘lib qolgan emas. Har bir milliy



qadriyatlarimiz tarixi uzoq ming yilliklarga borib taqalib, asrlar davomida otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan.

Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrdan asrga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar ham uzoq ming yillik tarixga ega. Ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qadriyatlar negizida tug'ulib o'sgan vatanga muhabbat, ona-onaga ehtirom, ajdodlar ruhiga hurmat, ezgulik, qalbdagi iymon, andisha, ibo-hayo, halollik, to'g'ri so'zlik, adolat kabi fazilatlar yotadi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek "Har qaysi xalq millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi", "Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil - ta'lim-tarbiya tizimidir", "ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" dir. Shunday ekan yosh avlod qalbiga milliy qadriyat va an'analarni, sharqona urf-odatlarimizni, milliy hayot tarzini singdirish avvalo oiladan boshlanadi. O'zbek ayoli deganda ko'z o'ngimizda Zulfiyaxonim, Nodirai davronlar gavdalanadi. Milliy qadriyatlarimizni asrab- avaylash, an'analarni jahon miqyosida raqobatbardosh qilib shakllantirish har bir o'zbek ayoli, o'zbek farzandi oldida turgan vazifadir. Shunday ekan har bir inson turmush tarzida sharqona muhitni milliy qadriyatlarga tayangan holda barpo etish, farzandlar tarbiyasida o'zbekona an'analarga, urf-odatlariga alohida urg'u berish milliy qadriyatlarimizni asrab avaylashda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy- ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Ezgu fazilatlar inson ongiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasini bilan singadi. Ona tili-millat ruhidir deb bejiz aytilmagan. Bu borada buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadig'on oynai hayoti til va adabiyotdur", "Milliy tilni yo'qotmoq millatning ruhini yo'qotmoqdur" degan hikmatli so'zlarining o'zida ham chuqur ma'no aks etgan. Zero, davlat tiliga bo'lgan munosabat, davlat tilini mukammal bilish, uni jamiyatga to'g'ri talqin qilish, ona tiliga bo'lgan hurmat tuyg'usini qalbgaga singdirish har bir o'zbek farzandining oldidagi burchi hisoblanadi. So'z mulkingning sultoni Hazrat Alisher Navoiy "Hamsa" asarini yozib, dunyoga turkiy tilning go'zalligini va jozibasini, nafosatini, ohangdor til ekanligini isbotlagan bo'lsa, 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, bugungi kunda tilimizni kelajagi, taraqqiyoti uchun katta islohotlar olib borilmoqda. Shu o'rinda shuni faxr bilan aytish kerakki, o'zbek tilida



50 mlnga yaqin kishi gaplashishi, jahonning eng yirik 50 tilidan biri hisoblanishi, so'zlashuvchisining ko'pligi bo'yicha qardosh tillar orasida 2- o'rinda turishi, dunyo bo'ylab 70 ga yaqin oliygohlarda o'zbek tili o'qitilishinining o'zida ham buyuk allomalarimizning, ma'rifatparvar ajdodlarimizning chuqur mashaqqatli mehnatlari yotadi desa mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek millati deganda Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy singari jahonda tengi yo'q allomalarning avlodlari ekanligimiz biz uchun tengsiz faxr ekanligimizni anglagan holda, ularga munosib farzand bo'lib, globallashib borayotgan bir davrda yurtimiz sha'nini, millatimiz dovrug'ini jahon miqyosida yuqori marralarga ko'tarish uchun harakat qilishimiz lozim. Zero, bu borada muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev biz yoshlarga har bir sohada juda keng ko'lamli sharoitlar yaratib bermoqda. Davlatimiz rahbari xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, muqaddas dinimiz, an'ana va qadriyatlarimiz, bebaho tarixiy marosimlarimizni saqlab qolish va rivojlantirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida biz yoshlar yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, millatimiz urf-odatlari, an'ana va qadriyatlarimiz nufuzini jahon reytingi miqyosida yuqori cho'qqiga olib chiqishimiz uchun tinimsiz harakatda bo'lishimiz lozim. Vaholangki, o'zbek xalqining qadriyatlarining bebaho ekanligi, shu milliy urf-odatlarimiz bilan barcha millatlar orasida alohida ajralib turishimizning o'zida chuqur hikmat bor. Har bir o'zbek farzandi milliy qadriyatlar shukuhida o'sib kamol topishi yurtimiz, millatimiz kelajagi uchun katta zamin yaratadi. Islom Karimovni "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart" degan chuqur ma'noli fikrlari hammamizning qalbimizda muhrlanib qolgan. Barcha O'zbekiston yoshlari, o'zbek millat farzandlari birlashaylik, qo'lni-qo'lga berib, millatimiz sha'ni, qadriyatlarimiz uchun kurashaylik. Yurtimiz dovrug'ini, sharqona tarbiyamizni globallashib borayotgan davrda yanada yuqori marralarga ko'tarib, yurtboshimiz ishonchini baralla oqlash uchun har birimiz astoydil xizmat qilaylik. Zero, yurtimiz, millatimiz kelajagi- biz yoshlar qo'lida ekan, har birimiz yurtimiz ravnaqi uchun munosib hissamizni qo'shaylik!!!



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent-2017
2. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Toshkent - 2008.
3. [https://www. Researchgate.net](https://www.Researchgate.net)
4. <https://qumqurgon.uz>
5. <https://kompy.info>

